

## «Asaka» bolalar oromgohida ta'til maroqli o'tmoqda



**Mamlakatimiz hududlarida o'quvchilarning yozgi ta'tilini maroqli o'tkazishi uchun mingdan ortiq oromgoh faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularning sakkiz yuzdan ortig'i umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari qoshidagi kunduzgi oromgohlar bo'lib, ikki yuzdan ortig'i asosan shahardan tashqarida joylashgan statsionar oromgohlardir.**

Yaqinda «Asaka» bank tomonidan bolalarning yozgi ta'tilini sermazmun tashkil etish maqsadida Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanining so'lim go'shalaridan biri «Humson» qishlog'ida bolalar yozgi oromgohi bunyod etildi.

«Asaka» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida yosh avlodni har tomonlama barkamol tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, sport bilan shug'ullanishi va maroqli dam olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 10 martdagi «Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori dasturilamal bo'lmoqda.

Quvonarlisi, ushbu oromgohda joriy yil yoz mavsumida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan 500 nafarga yaqin o'smir hordiq chiqaradi.



Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun malakali va faol yetakchilarni jalb qilish, turli ma'rifiy ko'ngil-ochar dasturlar, sport va badiiy tanlovlar uyushtirishga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

– Oromgohda farzandlarimizning iqtidorini yuzaga chiqarish, ta'tilning yaxshi taassurotlarga boy bo'lishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan, cho'milish havzalari, sport majmualari, to'garaklar, kutubxona, madaniy dam olish uchun imkoniyatlar mavjud, - deydi farzandlaridan xabar olishga kelgan Nargiza Ismoilova. – Ayniqsa, tog' havosi, buloq suvi, ko'plab sersoya daraxtlar hordiq chiqarayotgan bolalarning salomatligi mustahkamlanishi, to'g'ri rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzandlarmizning baxtiyorligini ko'rib, biz ota-onalar ham mamnun bo'ldik.

Mazkur oromgohning ishga tushirilishi natijasida bu maskanda 44 ta ish o'rni tashkil etildi.

Malakali tibbiyot xodimlari va pedagoglar tomonidan oromgohda bolajonlarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari yuqori darajada olib boriladi. Dam oluvchilarni kuniga 5 mahal sifatli oziq-ovqat va mevalar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bolalarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tez tibbiy yordam va o't o'chirish guruhi, ichki ishlar xodimlari hamda «Asaka» bank mas'ul xodimlarining uzluksiz navbatchiligi tashkil etilgan.

– O'n yoshdaman. Bu yilgi yozgi ta'til men uchun juda maroqli o'tmoqda. Sababi birinchi bor yozgi oromgohda, tabiat qo'ynida hordiq

chiqaryapman. Bu oromgoh menga juda yoqdi. Oromgohda sport o'yinlari va musobaqalar tashkil etilmoqda, yangi do'stlar orttirish imkoniyati yaratilgan. Yozgi ta'til men uchun unutilmas bo'lib qoladi, – deydi Kamoliddin Hayitov.

Oromgohda haftaning har bir kuni alohida nomlanib, o'quvchilarga kun mavzusiga oid bilimlar berib borilmoqda. Yosh kitobxon, xorijiy tillar, musiqa, rasm va boshqa to'garaklar mashg'ulotlari bolalarga manzur bo'lmoqda. O'g'il-qizlar futbol, voleybol, basketbol, badiiy gimnastika, shaxmat-shashka, stol tennisi, suzish va boshqa sport turlari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega. Bunday shart-sharoitlar ularning sog'lom o'sishi, bilim va dunyoqarashini kengaytirish bilan birga bolajonlarning ona yurtimizga, uning betakror tabiatiga mehrini ham oshirmoqda.

**Feruz Jo'raev**  
**«Adolat» muxbiri**

*«Adolat» gazetasi*  
*№25, 2017 yil 23 iyun*